

QIYNOQDAN JABRLANGANLAR HUQUQLARINI HIMoya QILISH TUSHUNCHASI
VA UMUMIY TAVSIFI

Xamrayev Abdulbositho'ja Toshpulot o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlariga oid xalqaro hamda milliy qonunchilik huquqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, unda inson huquqlari umujahon deklaratsiyaning mazmun mohiyati hamda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi milliy normativ-huquqiy hujjatlari bayon qilingan. Bundan tashqari bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili shuningdek ushbu islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uning jamiyatdagi o'rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy jihtadan keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, shaxs, jamiyat, davlat, islohotlar, ijtimoiy huquqlar, tabiiy huquqlari.

Abstract: In this article, international and national legislation on human rights is analyzed from a legal point of view. In addition, the analysis of the reforms implemented in the field of human rights in the Republic of Uzbekistan today, as well as the importance of these reforms and their place and role in society, is analyzed. In addition, in this article, the normative legal documents adopted in the field of human rights in our country in recent years have been extensively analyzed from a legal point of view.

Key words: human rights, individual, society, state, reforms, social rights, natural rights.

Аннотация: В данной статье международное и национальное законодательство о правах человека анализируется с правовой точки зрения. Кроме того, анализируются реформы, проводимые в сфере прав человека в Республике Узбекистан на сегодняшний день, а также значение этих реформ и их место и роль в обществе. Кроме того, в данной статье с юридической точки зрения подробно анализируются нормативные правовые документы, принятые в сфере прав человека в нашей стране за последние годы.

Ключевые слова: права человека, личность, общество, государство, реформы, социальные права, естественные права.

KIRISH. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 28 dekabr kuni bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga qiyonoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Qizg'in muhokamalardan so'ng, deputatlar tomonidan berilgan takliflar inobatga olingan holda, qonun loyihasi qabul qilindi.

Ushbu qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida ishlab chiqilgan. Murojaatnomada avvalo tezkor-qidiruv, tergov va jazoni ijob etish sohasida qiyonoqlarning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Ayni sohada, bir tomonidan, fuqarolarda jiddiy e'tirozlarni keltirib chiqarayotgan, ikkinchi tomonidan, mamlakatimizning xalqaro nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni bartaraf e'tish bo'yicha Oliy Majlis palatalari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaziga qiyonoqlarning oldini olish yuzasidan tegishli vazifalar yuklangandi.

Bu haqda so'z borganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 iyunda qabul qilingan "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etganini alohida ta'kidlash lozim.

Qarorda qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Shuningdek, Ombudsman huzurida Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhlari tashkil etildi hamda ularning asosiy vazifalari belgilab berildi.

Shu asosda tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijob etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etildi. O'tgan davrda sohaning 1 ming 200 dan ortiq xodimi o'qitildi.

"Mazkur Qarorda qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko'rsatilishini hamda ularga yetkazilgan zararning kompensatsiya qilinishini ta'minlash qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi"⁵⁰. Shuningdek, bunday

⁵⁰ Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2012. — 304 b

jinoyatdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish tartibini ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berildi.

Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. Qonunni qabul qilish zarurati quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi va Qiynoqqa qarshi qo'mitasining O'zbekiston Respublikasining davriy hisobotlarini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha bergan yakuniy mulohazalarida qiynoqqa solingan shaxslar huquqlarini himoya qilish, ularga ijtimoiy, tibbiy, psixologik yordam ko'rsatish hamda ularga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish bo'yicha bir qator tavsiyalar nazarda tutilgan. Qonunning qabul qilinishi ushbu tavsiyalar ijrosini ta'minlaydi.

"Ma'lumki, O'zbekistonning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt bajarilishi bo'yicha taqdim etgan beshinchi davriy hisoboti (CCPR/C/UZB/5) yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi taqdim etgan yakuniy mulohazalarining 25.a-tavsiyasida qiynoqqa solish jinoyatini sodir etgan shaxslarni jazoga tortish va jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash zarurligi belgilangan."⁵¹

O'z navbatida, O'zbekistonning Qiynoqqa qarshi konvensiya bajarilishi bo'yicha taqdim etgan beshinchi davriy hisoboti (CAT/C/UZB/5) bo'yicha BMTning Qiynoqqa qarshi qo'mitasi bergan yakuniy mulohazalarning 13.s-tavsiyasida qiynoq solishdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni jabrlanuvchilarga (yoki ularning yaqin qarindoshlariga) to'liq kompensatsiya qilish tavsiya etilgan. Shuningdek, Qo'mita o'zining 18.b-tavsiyasida qiynoqqa solish oqibatida olingan dalillar sababli jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ularga yetkazilgan zararni qoplashni tavsiya qilgan.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi ma'ruzasida milliy preventiv mexanizmni takomillashtirish hamda BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasi Fakultativ protokolining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi ma'lum qilindi. Joriy yil dekabr oyida BMTning Terrorizmga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish masalasi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi F. Aolaynning O'zbekistonga tashrifi doirasida ham ushbu masalaga e'tibor qaratildi.

⁵¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan

Tashqi ishlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, BMTning Qiynoqlar masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi N.Melserning O'zbekistonga tashrifi 2022 yilda rejalashtirilgan. Ushbu tashrif doirasida ayni masalalarga yanada jiddiy e'tibor qaratilishi tayin.

Uchinchidan, qiynoq bilan bog'liq holatlar mamlakatning xalqaro maydondagi nufuziga, shu jumladan iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston BMT Taraqqiyot dasturining Inson kamoloti indeksida 106-o'rinni, Jalon bankining boshqaruv sifati indikatorlarining siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik yo'qligi subindikatori bo'yicha 136-o'rinni, "Jalon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkilotining Huquq ustuvorligi indeksining asosiy (fundamental) huquqlarning ta'minlanganligi indikatori bo'yicha esa 110-o'rinni egallab turibdi.

Shuni ham qayd etish kerakki, 2021 yil 10 aprel kuni O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus preferensiyalar tizimi (GSP+) kuchga kirdi. Ushbu tizimga qo'shilayotganda mamlakatlar inson va mehnat huquqlariga, atrof-muhit, iqlim muhofazasi va sifatli boshqaruvga oid 30 dan ortiq asosiy xalqaro konvensiyani samarali amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi. Bu hujjatlarning 7 tasi bevosita inson huquqlari bag'ishlangan xalqaro shartnomalardir.

To'rtinchidan, qiynoq holatlarining oldini olishga borasida amalga oshirilayotgan ishlarning hozirgi holati bugungi kun talabiga to'liq javob bermaydi. Buni qiynoq bilan bog'liq holatlarning ko'payishi ham ko'rsatib turibdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2017 yilda – 7 ta, 2018 yilda – 10 ta, 2019 yilda – 16 ta, 2020 yilda – 15 ta, 2021 yil yanvar-oktyabr oylarida – 11 ta qiynoqqa solish jinoyati qayd qilingan.

Beshinchidan, Qonunning qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro shartnomalardagi majbiruyatlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga xizmat qiladi.

Zero, 1966 yilgi Fuqaroviylar va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ishtiroy etuvchi har bir davlat Paktda tan olingan huquqlari va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni, agar bu buzilish rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa ham, huquqiy himoyaning samarali vositasi bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olishi belgilangan.

Bundan tashqari, Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga

qarshi konvensiyaning 14-moddasida "Har bir ishtirokchi davlat o'zining huquqiy tizimida qyynoqlarning qurboni tovon olishini va iloji boricha to'laroq tiklanish uchun mablag'larni qamrab oluvchi, huquqiy sanksiya bilan to'ldiriladigan adolatli va muqobil tovon (kompensatsiya) olish huquaiga ega bo'lish huquqini ta'minlaydi"⁵² deb belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, "Qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilovchi 991-moddasiga qyynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamshituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash natijasida yetkazilgan zarar uchun ham javobgarlik kiritilmoqda"⁵³

XULOSA VA TAKLIFLAR Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida quyidagilar O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari normalarini bajarish yuzasidan mas'ul davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan: xalqaro tashkilotlarning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tavsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan milliy harakat rejalari («yo'l xaritalari»)ning so'zsiz bajarilishini ta'minlash; qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish; O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarini bajarish sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish. O'zbekiston milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yan bir davrda milliy huquqiy tizimni tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va malakali yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirildi. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro tuzilmalar bilan yaqin sheriklik kengaymoqda, huquqni himoya qilish borasida

⁵² Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2012. — 304 b

⁵³ Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2012. — 304 b

hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar bilan amaliy muloqot yo'lga qo'yildi. Umuman olganda, Davlatimiz rahbarining global forumni o'tkazish to'g'risidagi tashabbusi mamlakatimizda inson huquqlari sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, bu borada ta'lim va tarbiya ishlarini mazmunan boyitishga hamda yuqori sifat darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan
2. Inson huquqlari umumiyy nazariyasi: II V tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2012. — 304 b
3. Сайдов А.Х.. Международное право прав человека: Учебное пособие / Отв.ред. акад. Б.Н. Топорнин. М., 2002. - С. 80.
4. Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт / Отв. изд. А.Х. Сайдов. - Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2011. - С. 11.